



## O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA DOIR FIKR-MULOHAZALARING AFZALLIKLARI

Sultanova Jasmina Quatbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktangacha  
va boshlang'ich talim Maxsus pedagogika: Logopediya 2-kurs  
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20267928>

### ARTICLE INFO

### ABSTRACT

Received: 1st May 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> May 2026

Published: 15<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

*Kambag'allik dunyo miqyosidagi eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham agoli farovonligini oshirish va kamba'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Aniqsa, oxirgi yillarda bu borada keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.*

Yangi O'zbekistonda 2017 yildan boshlangan yangi islohotlar ijtimoiy sohalar taraqqiyoti, jumladan fan, ta'lim, mada niyat, sport sohalarini rivojlantirish, onalar va bolalar salomatligini asrash, keksalar va nogrionlarni reabilita siya qilish, yolg'iz pensionerlar va qariyalarni asrabavaylash, ijtimoiy hamkor tashkilotlar bilan sheriklik asosida to'plangan tajribalarni tahlil qilish va rivojlantirishda yangi davrni boshlab berdi va sohaning instiutsional bazasi rivojiga xizmat qildi.

Kambag'allikni kamaitirishda eng muhim omil – bu bandlikni taminlashdir. Yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish mumkin. Aniqsa, qishloq joylarda kichik business va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish lozimdir.

Strategiyada ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish sifatini tubdan oshi rish, aholining sifatli va aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni oshirish, fan, ta'lim sohalarini rivojlanti rish bo'yicha kompleks choratadbirlarni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, aholi qatlamlari bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil etish lozimligi alohida qayd etilgan bo'lib, bu borada, rejaviy asosda izchil islohotlar amalga oshirildi. Ushbu bosqichda ayniqsa O'zbekistonda 2017 yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatları yili» deb nomlanishi ijtimoiy siyosatning izchil amalga oshirilayotganligidan da lolat berdi. Jumladan, respublika Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni ri vojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirla ri to'g'risida»<sup>1</sup>gi Farmoni qabul qilindi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bugungi kunda eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Kambag'allik – bu insonlarning o'z asosiy ehtiyojlarini qondirish

<sup>1</sup>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Йирик sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar ўrtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari tўg'risida»gi Farmoni // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2006, №1.

uchun yetarli daromadga ega bo'lmisligi holatidir. Avvalo, aholining bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Yangi ish o'rinlari yaratish orqali odamlarning daromadi oshadi va ular kambag'allikdan chiqib ketish imkoniga ega bo'ladi. Yana bir muhim yo'nalish – ta'lim va kasb-hunar o'rganishdir. Zamonaviy kasblarni egallagan yoshlar o'ziga munosib ish topa oladi. Kasb-hunar markazlari faoliyati kengaytirilayotgani ham shu maqsadga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat tomonidan ijtimoiy himoya tizimi ham kuchaytirilmoqda.

Hujjatda belgilanishicha, yangi tashkil etiladigan kichik sanoat zonalariga barcha zarur infratuzilmalarni yetkazib berish uchun kichik sanoat zonalarini boshqarish direksiyalariga Davlat byudjeti mablag'laridan 100 milliard so'm ajratiladi; Yangi tashkil etilgan kichik sanoat zonalaridagi yer uchastkalarini tadbirkorlarga Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilana digan tartibda xususiylashtirilib beriladi va bundan tushgan mablag'lar kichik sanoat zonalarini boshqarish direksiyalari tomonidan yangi kichik sanoat zonalarini barpo etishga sarflanadi. Har bir tumanda dehqonchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan aholi ro'yxati shakllantirilib, qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan yerlar talabgorlarga taqsimlab beriladi va ular kooperatsiyalarga birlashtiriladi. Bunda, mazkur shaxslarga qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar taqdim etiladi va yerlarni oborotga qaytarish uchun barcha zarur choratadbirlar ko'riladi.

Kambag'allikka kamaytirish, uning darajasi yuqori bo'lgan hududlarda uni kamaytirish, imkon qadar ularni kambag'allik qatlamidan chiqarish choralari ko'rish lozim bo'lmoqda. Bu vazifani amalga oshirish uchun hududlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini barqaror ta'minlash uchun har bir hududda tadbirkorlikni rivojlantirish lozim. Bizning fikrimizcha, Kambag'allikka barham berish uchun quyidagi chora tadbirlarga alohida e'tibor qaratish lozim: kambag'allikni qisqartirish bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalarini tadqiq etish asosida kambag'allik darajasini aniqlash va uni hududiy jihatdan baholash uslubiyatini jori qilish asosida muhtoj qatlarning ijtimoiy ta'minot darajasini minimal standartlari va me'yoriy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda keng foydalanishni yo'lga qo'yish; mahallalar kesimida mahalliy boshqaruv organlari orqali oilalarning turmush darajasi, yashash sharoitlari va ijtimoiy ahvolini o'rganish asosida, yashash minimumi va minimal istemol savatini hisoblash uslubiyatini ishlab chiqish va aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlar ni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash; har bir mahallada aniqlangan ijtimoiy ahvoli og'ir aholi qatlamlarining ro'yxati asosida ularning har birida qanday iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligini o'rganish asosida kambag'allikni tugatishning aniq tizimli va manzilli yo'nalishlarini ishlab chiqish; hududlardamehnat bozorining shakllanishi va tarkibi sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchining ichki va tashqi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomil lashtirish, mehnat resurslarini taqsimlash borasida o'zaro muvofiqlikdagi tizimli ishlar olib borish asosida o'zini o'zi band qilishni rivojlantirish choralari ko'riladigan bo'ldi.

Umuman, qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili kambag'allik darajasiga tushib qolgan shaxslar, ijtimoiy himoyatalab oilalar va moddiy yordamga muhtoj aholi qatlamlariga, kam ta'minlangan aholi, ko'p bolali onalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar va boshqa toifalarni davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosatini ifodalashda muhim integrator qonuniy hujjat vazifasini o'tadi. Albatta, jamiyatda ijtimoiy ta'minot adolatli amalga oshirilishi va manzilli bo'lishi muhimdir. Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni har tomonlama qo'llabquvvatlashda ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini to'liq qamrab olish ahamiyatlidir.

Ijtimoiy kafolatlar bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish, majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish

hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish belgilangan. Ayniqsa, ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish masalasi bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib, u bilan bog'liq muammolarni yechishga davlat siyosati doirasida ahamiyat qaratilmoqda. Ularni aniqlash va hal qilish faqat mutasaddi vazirliklarning yoki mahalliy hokimiyatlarning ishi emas, balki har bir oilaning, shaxslarning ishidir.

